



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



## XAVFSIZLIK – IJTIMOYIY-MA'NAVYIY TAHLIL

**Nurullayev Hayotjon Umidjonovich**

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi*

*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi*

[nurullayevhayot@gmail.com](mailto:nurullayevhayot@gmail.com)

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada, zamonaviy dunyoda kechayotgan siyosiy, g'oyaviy, mafkuraviy va iqtisodiy o'zgarishlar milliy xavfsizlikni mustahkamlash, yangi tahdidlarga qarshi kurash usullarini izlash, jamiyat va insonlarni himoya qilish asoslarini yaratish zaruratini tug'dirmoqda. Ko'pgina taraqqiy etgan davlatlarda bu kabi muhim masalalar muntazam ko'rib chiqiladi.*

*Shu bois, mamlakatimizda ham milliy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyasini davr talablariga moslashtirib, doimiy takomillashtirib borish lozim. Buning uchun esa, avvalo ushbu tushunchaning ijtimoiy va falsafiy jihatlarini chuqur tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Ma'naviy xavfsizlik, geosiyosat, g'oyalar kurashi, mafkuralar, iqtisodiy o'zgarishlar, milliy xavfsizlik, umuminsoniy muammolar, milliy manfaatlar, xalq manfaatlari.*

Globalashuv jarayoni millat ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish sur'atini oshirmoqda. Bugungi kunda millatni va uning ma'naviy o'zligini himoya qilish umumiy insoniyat muammosiga aylandi. Boisi, millat ma'naviyatini himoya qilish deganda uning vakillari bo'lgan insonlarni, ularning ma'naviy ruhiy olamini asrash tushuniladi. Inson milliy ruhiyatini himoya qilmasdan turib, millat ma'naviyatini saqlab qolish mumkin emas. Shu sababli, bu ikki tushunchani o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqish zarur.

Yangi asr voqea hodisotlari ham bir mamlakatning milliy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyasini muttasil takomillashtirib borishni talab etmoqda. Taraqqiy etgan davlatlarning aksariyatida ushbu konsepsiyalar har 3-5 yilda qayta ko'rib chiqilayotgani sababi ham shundan. Jumladan, O'zbekiston ham milliy xavfsizlik ta'minlash konsepsiyasini zamon bilan hamnafas holda shakllantirib borishi davr taqazosi hisoblanadi. Bu yo'lda avvalo shu yo'nalishdagi zamonaviy konsepsiyalar ijtimoiy-ma'naviy pozitsiyasidan mufassal tahlil etilmog'i lozim.

Zamonaviy milliy xavfsizlik konsepsiyalarini tahlil qilishning nazariy asosini milliy xavfsizlik haqidagi ilmiy mulohazalar tashkil etadi. Shaxs, davlat va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar, ularni bartaraf etish mexanizmlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lmasdan turib, zamonaviy milliy xavfsizlik konsepsiyalari mohiyatini to'g'ri tadqiq etib bo'lmaydi. Milliy xavfsizlik konsepsiyalari haqida obyektiv va tizimli tasavvurlarni shakllantirish uchun jahonning turli qit'alarida joylashgan, turli ijtimoiy va geografik sharoitlarda faoliyat ko'rsatayotgan, turli tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan mamlakatlarning konsepsiyalari tahlil qilinmog'i darkor.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Bu tushuncha to‘g‘risida fikr yuritir ekanmiz, “xavfsizlik” – ob‘ektga xavf va tahdid soluvchi omillarni bartaraf qilish imkoniyatining mavjudligi, bu tahdidlarga qarshi turuvchi mexanizmning mavjudligi demakdir. Bunda obyekt albatta shaxs, davlat, jamiyat o‘taydi. Aynan shu uchlikni ilmiy manbalarda milliy xavfsizlik obyektlari triadasi deb yuritiladi. Milliy xavfsizlikning mazmuni va mohiyatini to‘g‘ri talqin qilish, uni ta‘minlash mexanizmini mufassal tasavvur etishda ushbu mulohazalar nazariy-metodologik asos vazifasini o‘taydi. Shunday qilib, milliy xavfsizlik deganda shaxs, davlat va jamiyatning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligi darajasi, bu tahdidlarga bardoshlilik me‘yori, ularga qarshi turuvchi ijtimoiy mexanizmning mavjudligi tushuniladi. Mazkur tushunchani ilmiy muomalaga ilk marotaba 1904-yilda AQSh sobiq prezidenti T.Ruzvelt kiritgan. [1]

Keyinchalik tushuncha mazmuni doirasi ijtimoiy munosabatlar, globallashuv va integrasiya jarayonlari, shuningdek, xilma-xil ko‘rinishdagi tahdid va tahlikalarni izohlash bilan uzviy bog‘liq ravishda kengayib bordi. Kundalik hayotda odatda milliy xavfsizlik deganda davlat xavfsizligining ta‘minlanganligi darajasi tushuniladi. Ayrim ilmiy manbalarda ham mazkur ikki tushuncha sinonim sifatida qo‘llaniladi.

Xususan, K.Kokunov tadqiqotlarida “davlat xavfsizligi” va “milliy xavfsizlik” tushunchalarini aynan bir xil tushunchalar sifatida talqin qiladi [2]. Bunday metodologik yondashuv yuqorida keltirilgan milliy xavfsizlik triadasini yaxlit tizim sifatida tasavvur qilishga xalal beradi. Natijada milliy xavfsizlikning tarkibiy komponentlarini aniq ifodalash, mavjud xavf va tahdidlarni triada obyektlariga mutanosib ravishda tasniflash qiyin kechadi.

Biz keltirgan ta‘rif ustida yuzaki mulohaza yuritishning o‘ziyoq milliy xavfsizlik murakkab tizimdan iborat ekanligini namoyon etadi. Uning tarkibi quyidagi tizim osti tarkiblarini o‘z ichiga oladi: a) shaxs xavfsizligi; b) davlat xavfsizligi; v) jamiyat xavfsizligi. Ushbu tizim osti tarkiblarining har biri ko‘plab elementlardan tarkib topadi. Binobarin, milliy xavfsizlik tizimining tarkibiy funksional tahlili, birinchidan, biz o‘rganayotgan obyekt haqida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, ikkinchidan, milliy xavfsizlikka tahdid solayotgan omillarni tasniflash, uchinchidan, milliy xavfsizlikni ta‘minlash mexanizmi detallarini aniqlash imkonini beradi.

Shaxs xavfsizligi – milliy xavfsizlik tarkibidan joy olgan birinchi tizim osti tarkibidir. U shaxsning hayoti va faoliyati, jismi va sog‘lig‘i, manfaat va ehtiyojlari, ma‘naviy qiyofasiga tahdid soladigan omillardan himoyalanganlik holatini anglatadi. Aytish joizki, “shaxs xavfsizligi” tushunchasi ilmiy manbalarda XX asr oxirlariga kelib paydo bo‘ldi. Buning qator sabablari bor, albatta. qadar “xavfsizlik” tushunchasi davlat bilan bog‘lanardi, xolos. XX asrga kelibgina xavfsizlik nafaqat davlatni, balki jamiyatni va shaxsni ham turli xavf-xatarlardan himoyalashni taqozo qilishi anglab etildi. Shu davrdan boshlab shaxs xavfsizligining mazmuni va uni ta‘minlash muammolariga bag‘ishlangan. Shuni yodda tutish kerakki, insonning o‘zi ham o‘z xavfsizligini ta‘minlovchi subyekt hisoblanadi. O‘z hayoti va faoliyati, jismi va sog‘lig‘i, ma‘naviy qiyofasi uchun shaxsiy mas‘uliyat qaror topmas ekan, shaxs xavfsizligi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Shaxsning xavfsizligi uning jismoniy va ma’naviy xavfsizligining ta’minlangani holatidan tarkib topadi. Jismoniy xavfsizlik shaxs hayoti va faoliyati, jismi va sog‘lig‘ining himoyalanganligi, unda zaruriy jismoniy tayyorgarlikning qaror toptirilgani, favqulodda holatlarga tayyorlik darajasi bilan bog‘liq. Jamiyatda shaxs hayotini qadrlash, sog‘lig‘ini asrash, jismoniy imkoniyatlarini oshirib borish, hayotiy faoliyat xavfsizligini ta’minlash mexanizmining mavjudligi uning ijtimoiylashuvi jarayonini jadallashtiradi, ijtimoiy faolligini yuksaltiradi.

Ma’naviy xavfsizlik esa shaxs ma’naviy qiyofasining turli tahdidlardan himoyalanganligi holatini namoyon etadi. Har qanday jamiyatda shaxs ongi va dunyoqarashi jamiyat ehtiyoj va manfaatlariga mutanosib ravishda shakllantirilmog‘i, turli tahdidlardan himoyalanganmog‘i shart. Chunki shaxs ma’naviy xavfsizligi inson mavjudligining asosiy manbalaridan biridir. Shaxs ma’naviy qiyofasiga tahdid nafaqat uning ma’naviy inqirozga, balki asta-sekinlik bilan jamiyat va davlatning ham tanazzuliga sabab bo‘lishi mumkin.

Izlanishlar davrida shaxs xavfsizligiga tahdid soluvchi omillarning asosiy toifalarini aniqlash ushbu toifalardagi tahdidlarning barcha ko‘rinishlarini ifodalab berish tahdidlarning keltirilgan shakldagi tasnifi ham har qanday jamiyatda shaxs xavfsizligiga raxna soladigan omillar tizimi nihoyatda murakkab xarakterga egalini yodda tutish zarur. Ma’lumki, turmush darajasi kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarining qondirilishi me’yorini anglatadi. Mazkur ehtiyojlarning to‘laqonli qondirilishi shaxsning ham jismoniy, ham ma’naviy shakllanishiga salmoqli ta’sir o‘tkazadi.

Binobarin, shaxs turmush darajasi baland bo‘lsa, u o‘zining jismoniy va ma’naviy xavfsizligini ta’minlay oladi. Biroq shuni ham ta’kidlab o‘tish zarurki, turmush darajasi shaxs jismoniy va ma’naviy xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladigan potensial imkoniyat, xolos. Shaxs esa ushbu imkoniyatlardan o‘z xavfsizligini ta’minlash yo‘lida foydalanishi ham, bu imkoniyatlarni besamar sovurishi ham mumkin. Ikkinchi holatda, yuqori turmush darajasi tom ma’noda xavfsizlik omili vazifasini o‘tay olmasligi ham mumkin. Shaxs xavfsizligini ta’minlovchi sub’ektiv omil esa bir maqsadga qaratilgan ma’naviy tarbiya bilan bog‘liq.

Ma’naviy tarbiya shaxs ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan jarayon ekanligi bizga ma’lum. Ushbu jarayon, fikrimizcha to‘rt asosiy yo‘nalishni qamrab oladi: a) shaxs fazilatlarini, hislatlarini va xosiyatlarini shakllantirish; b) shaxs dunyoqarashi va e’tiqodini qaror toptirish; v) shaxs faol hayotiy pozitsiyasini yuzaga keltirish; g) shaxs amal qiladigan prinsiplarni mustahkamlashdan iborat.

Ma’naviy tarbiya – shaxs ma’naviy qiyofasini turli illatlarning ildiz otishidan sug‘urta qiladi, g‘ayriinsoniy e’tiqod va mafkuralar ta’siriga tushib qolishdan asraydi, pessimistik va regressiv hayotiy pozitsiyaning qaror topishidan himoya qiladi, prinsipsizlikning shakllanishidan muhofaza etadi. Xuddi shuning uchun ham ma’naviy tarbiyani shaxs xavfsizligini ta’minlovchi qudratli omil sifatida e’tirof etamiz. Davlat xavfsizligi – milliy xavfsizlik tarkibidan joy olgan ikkinchi tizim osti tarkibidir. U davlatning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holatini anglatadi. Davlat xavfsizligining mazmun mohiyatini





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



to'g'ri tushunish uchun uni jamiyat xavfsizligidan tafovutlay bilish kerak. Ayrim hollarda "davlat xavfsizligi" va "jamiyat xavfsizligi" tushunchalari sinonim sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, davlat xavfsizligini muayyan institusional tizimga qiyoslash ham unchalik to'g'ri emas. Davlat xavfsizligi ushbu institusional tizim vositasida yuzaga keltirilgan holatdir.

Ushbu tushuncha bir qadar kengroq hajmga ega bo'lib, davlat va xalqning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ruhiy imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy falsafada davlat xavfsizligining yuqorida keltirilgan tarkibiy elementlarini zaiflashtirishga xizmat qiladigan har qanday omil davlat xavfsizligiga tahdid deb baholanadi. "Sovuq urush" barham topganidan keyin, - deb yozgan edi I.Karimov, - yalpi xavfsizlikka asosiy tahdidni etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangari separatizm solmoqda. Ayniqsa, bunday qarama-qarshiliklar ayrim mamlakatlar qo'lida ularning o'z manfaatlarini va ta'sir doiralarini saqlab qolish va himoya qilish uchun yoki strategik kuchlar muvozanatini o'z foydalariga o'zgartirish uchun qudratli siyosiy ta'sir vositasiga aylanmoqda. [4]"

Jamiyat xavfsizligi keng ma'noda kishilarning ijtimoiy va moddiy muhofazasini ta'minlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, xuquqiy choratadbirlar majmuini anglatadi. Tor ma'noda esa jamiyat xavfsizligi deganda jamiyat a'zolarining yoshi, salomatligi, ijtimoiy ahvoli, tinch va xotirjam turmushi uchun yaratilgan shart-sharoitlar, yordamga muhtoj fuqarolarga g'amxo'rlik qilish mexanizmining shakllanganligi va shu kabilar nazarda tutiladi. Uning asosiy maqsadi jamiyat a'zolarining munosib turmush darajasini ta'minlash, aholi farovonligini muttasil oshirib borish, turli aholi qatlamlarining mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa sohalaridagi imkoniyatlardan teng foydalanishini ta'minlash bilan bog'liq.

Jamiyat xavfsizligi milliy xavfsizlik triadasining o'ziga xos obyekt sifatida mamlakatimiz va xorijda mutaxassislar tomonidan ancha keng tadqiq qilingan. Jumladan, xorijiy ilmiy manbalarda "jamiyat xavfsizligi mazmuni va tarkibini ochib berishga, uni ta'minlash shartsharoitlarini aniqlashga, turli vaziyatlarda unga nisbatan yuzaga keladigan tahdidlar mohiyatini ifodalab berishga harakat qilinsa" [5], mamlakatimizda tayyorlangan ilmiy ishlarda ko'proq jamiyat xavfsizligining turli aspektlari mohiyatini yoritishga, davlat va ijtimoiy institutlarning ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini tahlil qilishga, ularning faoliyati samarasini oshirish yo'llarini belgilashga e'tibor qaratiladi [6].

Milliy xavfsizlik triadasining boshqa obyektlari kabi jamiyat xavfsizligi ham o'z tarkibiga ega. U jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarini qamrab oladi. Jamiyat xavfsizligi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1) iqtisodiy xavfsizlik barqaror iqtisodiy taraqqiyot sur'atlari ta'minlangan, moddiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, iqtisodiy manfaatlarning milliy va xalqaro darajada himoyalanganligi holatini anglatadi. Iqtisodiy xavfsizlikning sohaları haqida gapirganda "energetik xavfsizlik", "sanoat xavfsizligi", "ozuq-ovqat xavfsizligi", "texnogen xavfsizlik" va shu kabi ko'plab tushunchalarni qo'llaydilar;



2) ijtimoiy xavfsizlik jamiyat a'zolarining tinch va xotirjam turmushi uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi, jamiyatda ijtimoiy adolat norma va prinsiplariga amal qilinishi holatini ifodalaydi. Bu o'rinda ijtimoiy xavfsizlikning o'ziga xos sohalari sifatida “ekologik xavfsizlik”, “demografik xavfsizlik”, “hayotiy xavfsizlik”, “oila xavfsizligi”, “axborot xavfsizligi” va hokazolar haqida gapirish mumkin;

3) mafkuraviy xavfsizlik milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning himoyalanganligi, jamiyat a'zolarida milliy g'oyaga sadoqat ruhining qaror topganligi, turli g'ayriinsoniy g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetning shakllanganligi, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot va mafkuraviy profilaktika tizimining samaradorligi darajasini ifodalovchi tushunchadir.

Jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar talaygina. Tabiiyki, bu tahdidlar zamon ruhiyatiga monand ravishda o'zgarib boradi. Lekin harqalay, xarakteriga qarab ularni tasniflash imkoni bor. Bizning fikrimizcha, jamiyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan tahdidlarni quyidagi yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

a) iqtisodiy tahdidlar – mamlakat iqtisodiyotining barqaror taraqqiyotiga xavf solayotgan, kishilarning moddiy ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga xalal berayotgan jarayonlar va hodisalar; iqtisodiyot uchun tahdid soluvchi omillar faqat iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin. Masalan, valyuta kursining o'zgarishi, iqtisodiy majburiyatlarning bajarilmasligi, texnik va texnologik qoloqlik, energiya tanqisligi va energetik qaramlik, giperinflatsiya va shu kabilar iqtisodiyot bilan bog'liq omillardir.

Biroq biror bir kasallik epidemiyasi, tabiiy ofat va shu kabilar ham, garchi iqtisodiy sohadan yiroq omillar bo'lsa-da, iqtisodiy tahdid darajasiga ko'tarilishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiy tahdidlarni yuzaga keltiruvchi manbasiga qarab ichki (aytaylik, mamlakat ichkarisida sodir bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy yoxud siyosiy voqealar) va tashqi tahdidlarga (jumladan, biror muxolif davlat yoki tashqi siyosiy kuchlar tomonidan uyushtirilgan jarayonlar) tasniflash mumkin;

b) ijtimoiy tahdidlar – jamiyat a'zolarining odatiy turmush tarzini izdan chiqarishga, fuqarolararo totuvlik va hamjihatlikka putur etkazishga, adolatsizlik va boshboshdoqlikni keltirib chiqarishga xizmat qiluvchi omillar; bunday omillar obyektiv (masalan, murakkab demografik vaziyat, ekologik inqiroz) va sub'ektiv (masalan, ijtimoiy tengsizlik), ichki (masalan, fuqarolararo kelishmovchilik) va tashqi (masalan, ijtimoiy vaziyatni izdan chiqaruvchi texnologiyalarning qo'llanilishi) xarakterga ega bo'lishi mumkin;

v) mafkuraviy tahdidlar – biror davlat, ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch g'oyasi va mafkurasini qo'rqituv va zo'rvonlik yo'li bilan tiqishtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar; shuningdek, mafkuraviy tahdid deganda “jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmuasi tushuniladi.” Biroq tilga olingan omillarning o'zi ham jamiyat xavfsizligiga tahdid soladigan omillar qanchalik ko'p va salmoqli bo'lsa, ularni bartaraf etishga xizmat qiladigan omillar miqdori ham shunchalik ko'pligini anglab olishga yetarli bo'lsa kerak.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Xulosa qilib aytganda, milliy xavfsizlik – bu shaxs, davlat va jamiyatning ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik darajasidir. Bu ularning bu xavflarga qanchalik chidamli ekanligini va ularga qarshi kurasha oladigan ijtimoiy mexanizmning borligini anglatadi. Milliy xavfsizlik shaxs, davlat va jamiyat xavfsizligi kabi qismlardan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘z navbatida ko‘plab elementlarni o‘z ichiga oladi. Milliy xavfsizlik uchligining har bir qismiga qaratilgan xavflar mavjud bo‘lib, ularning ta‘sirini kamaytirishga yordam beradigan omillar ham mavjud.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Общая теория национальной безопасности // Под общ. ред. А.А.Прохожева. – М.: Изд.РАГС, 2005. – С.344.
2. Кокунов К.А. Вызовы и угрозы национальной безопасности России в условиях глобализации: Дисс. на соиск. уч.степ. канд. полит. наук. – М.: Акад. МИД РФ, 2009. – С.15.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Том 6. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 37.
4. Воронов А. Общественная безопасность: административные, информационно-правовые проблемы обеспечения: автореф. дисс. ... докт. юрид. н. – М., 2006;
5. Туманов Г., Фризко В. Общественная безопасность и ее обеспечение в экстремальных условиях // Советское государство и право, 1989, – №5;
6. Фалсафа. Қомусий луғат // Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров. – Т.: “Ўзб. файл. миллий жам. нашр”, 2004. – Б.250.